Issiqxona gazlarini hisoblash mezonlari shakllantirilib, yagona qo‘llanma yaratiladi

// 19 May 2025 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/issiqxona-gazlarini-hisoblash-mezonlari-shakllantirilib-yago



Kimyo sanoatini zamonaviylashtirish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash bilan bir qatorda ishlab chiqarishda ekologik tozalikni ta’minlash, chiqindisiz texnologiyalarni va atrof muhitni saqlash bugunning muhim vazifalaridan.

Yurtimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga oshirish doirasida ham ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanoat korxonalarining atrof muhitga bosimini kamaytirish yuzasidan amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Mazkur yo‘nalishdagi ishlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturidan alohida o‘rin olgan.

“O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan davlat dasturida nazarda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida kimyo sanoati korxonalarining issiqxona gazlari ajratmalarini xatlovdan o‘tkazish va uglerodni tartibga solish mexanizmlari ta’sirini baholash ishlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, bugungi kunda “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari uchun issiqxona gazlarini vaqtinchalik hisoblash mezonlari (metodika, formula) shakllantirilib, yagona qo‘llanmani yaratish maqsadida tegishli

hisob-kitoblar olib borilmoqda.

Bu jarayonda qator davlat tashkilotlari jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Yashil iqtisodiyot loyihalari markazi” va O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya markazi bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Bundan tashqari ushbu vazirliklar bilan CBAM (Carbon border adjustment mechanism) tizimini joriy qilish bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazilyapti.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati